

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQI VA TAFAKKURINING SHAKLLANISHI

Sidiqova Yulduz Sobirovna

Osiyo Xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

Zayniyeva Zarina Shavqiddin qizi

Osiyo xalqaro universiteti

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda nutq va tafakkur jarayonlarining bir-biriga bog‘liqligi, bolalar nutqining rivojlanish bosqichlari, bolalar nutqining shakllanishiga turli nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Yangi pedagogik paradigmalarining bolalar nutqiy kompetensiyalarining takomillashuvidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: neyropedagogika, nutq, tafakkur, yondashuv, kognitiv rivojlanish, paradigma, inrefool metodlar, nutqiy faoliyat.

Zamonaviy ta’lim tizimida neyropedagogika yangi ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, inson miyasining kognitiv jarayonlari va ta’lim jarayoni o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga yo‘naltirilgan. Hozirgi zamonaviy jamiyatda muloqot qilish va ma’naviy-madaniy kompetensiyalarga ega bo‘lish shaxsning ijtimoiy muvaffaqiyati, intellektual rivojlanishi va shaxsiy kamoloti uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim jarayonida o‘quvchilarda samarali muloqot qilish qobiliyati va ma’naviy-madaniy ongini rivojlantirish ta’limning eng asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, ularning ijtimoiylashuvi, shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Nutq – inson tafakkuri va ma’naviy olamining tashqi va ichki ifodasi bo‘lib, u bilimlarni anglash, uzatish va qayta ishlash jarayonlarini ta’minlaydi. U kognitiv, psixologik, ijtimoiy va madaniy mexanizmlarni qamrab olib, shaxsning idroki, muloqoti va ijtimoiy munosabatlarini shakllantiruvchi asosiy vositadir. Nutq va tafakkur rivoji nafaqat bilish jarayonini mustahkamlaydi, balki muloqot jarayonini ham samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Tafakkur – inson ongidagi bilim, tajriba va his-tuyg‘ularni qayta ishlash, tahlil qilish, mantiqiy munosabatlarni o‘rnatish, yangi g‘oyalar shakllantirish va muammolarni hal qilish jarayoni bo‘lib, u kognitiv, ijtimoiy va neyrobiologik mexanizmlarni o‘z ichiga oladi. Inson nutqi ontogenez jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi va bolaning kognitiv, ijtimoiy hamda emotsional rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Nutq faoliyati tug‘ilgan kundan boshlab ma’lum jarayonlar orqali rivojlanib, bolaning tajriba orttirishi, muhit bilan o‘zaro munosabati va miyaning kognitiv yetukligi asosida takomillashadi. Bolalar nutqining shakllanishiga turli nazariy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati nutq rivojlanishining bir necha bosqichlarda kechishini ta’kidlaydi.

1. Og‘zaki nutqqa tayyorgarlik bosqichi (tug‘ilgandan 6 oygacha). Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar nutqqa tayyorgarlik jarayonida ovozli signallar va refleksiv ovoz chiqarishlar

5-Aprel, 2025-yil

orqali atrofdagi muhit bilan aloqaga kirishadi. Bu bosqichda chaqaloqlarning ovoz chiqarishi fiziologik jarayon sifatida namoyon bo‘lib, ular ovozlarni ajrata boshlaydi, ona tilidagi intonatsiya va ritmni his qiladi. Lingvist va psixologlar bu jarayonni "fonetik sezgirlik davri" deb ataydilar. Masalan, J.Piaje ta’kidlaganidek, “Chaqaloqlar hayotlarining ilk oylarida atrof muhitdan ovozli signallar qabul qilib, ularni qayta ishlash qobiliyatini rivojlantiradi”.

2. Guvrash (inglizcha: babbling, ruscha: lepet) va ovozlarni tajriba qilish bosqichi (6–12 oy). Bu davrda bolalar o‘z ovozlarni boshqarishni boshlaydilar va ularni mustahkamlash uchun takroriy harakatlarni amalga oshiradilar. Gugurtlash jarayonida bolalar turli tovush kombinatsiyalarini yasab, ona tilidagi fonetik elementlarni asta-sekin o‘zlashtirishni boshlaydilar. L.S. Vigotskiy fikriga ko‘ra, “Bola nutqi tabiiy biologik rivojlanish jarayonining bir qismi bo‘lib, u muloqot vositasiga aylanishidan avval nutqiy eksperimentlar bosqichidan o‘tadi”.

3. Bir so‘zli nutq bosqichi (12–18 oy). Bolalar bu davrda aniq ma’noga ega bo‘lgan birinchi so‘zlarini aytishni boshlaydilar. Bir so‘zli nutq bolaning tushunchasiga qarab keng ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, "bola" degan so‘z nafaqat o‘ziga, balki boshqa bolalarga nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Shuningdek, bu bosqichda bolalar atrof muhitni anglash jarayonida nutqni muloqot uchun foydalanishni boshlaydilar. Tadqiqotchi N. Xomskiy ta’kidlaganidek, “Inson nutqi biologik jihatdan rivojlanishning bir qismi bo‘lib, nutqiy qobiliyatlar asta-sekin til qoidalariga moslashib boradi.

4. Ikki so‘zli gaplar va sodda nutq (18–24 oy). Bu davrda bolalar ikki so‘zdan iborat iboralarni ishlatishni boshlaydilar, masalan, “ona kel” yoki “bola uxla”. Bunday iboralar sintaktik tuzilmaga ega bo‘lmasligi mumkin, lekin ularning ma’nosi aniq bo‘ladi. Grammatik qoidalarni anglash jarayoni hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, bolalar nutqiy ifoda vositalaridan faol foydalana boshlaydilar. Bu bosqichni lingvistik rivojlanishdagi “grammatik ong uyg‘onishi” deb ta’riflash mumkin.

5. Telegrafik nutq bosqichi (2–3 yosh). Bu bosqichda bolalar so‘zlarning to‘liq strukturasini tushunish va ularni bog‘lashga harakat qiladilar. Ular ikki yoki uch so‘zli so‘z birikmalari orqali murakkabroq fikrlarni ifoda eta boshlaydilar. Masalan, “ona suv ber” yoki “mashina ketdi” kabi ifoda usullari shakllana boshlaydi. Bu jarayonda bolalar grammatik qoidalarni asta-sekin o‘zlashtirishadi va nutqiy ko‘nikmalar rivojlanadi. Lingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu bosqichda bolalarning nutqiy rivojlanishi ko‘proq atrofdagi kattalarning nutqi bilan bog‘liq bo‘ladi.

6. Grammatik va semantik rivojlanish bosqichi (3–5 yosh). Ushbu bosqichda bolalar nutqiy qobiliyatlarni to‘liq o‘zlashtirishni boshlaydilar. Ular so‘zlarning morfologik va sintaktik o‘zgarishlarini tushunishga harakat qiladilar, ko‘proq so‘z boyligini o‘zlashtiradilar va uzunroq gaplar tuzish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, 4 yoshli bolalar odatda murakkab so‘z birikmalaridan foydalanishni boshlaydilar, “Men qo‘g‘irchoq bilan o‘ynayapman” yoki “Ota ishdan keldi” kabi gaplar bu jarayonning yaqqol ko‘rinishidir.

7. Maktabgacha va maktab yoshida nutqiy rivojlanish (5–7 yosh va undan keyin). Bolalar maktabgacha yoshda nutqiy faoliyatni mukammallashtirishni boshlaydilar. Ular

5-Aprel, 2025-yil

nafaqat o‘z fikrlarini ravon ifoda qilishni, balki mantiqiy xulosalar chiqarish, muloqotda jonli ifodalar qo‘llash va yozma nutqni rivojlantirishga kirishadilar. Maktabga kirish bosqichida esa bolalar yozuv orqali o‘z fikrlarini ifoda etishni boshlaydilar, bu esa nutqiy va tafakkur rivojlanishining yangi bosqichini belgilaydi.

Umuman, bolalar nutqining rivojlanish bosqichlari bolaning tajribasi, muhiti va kognitiv rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Nutq rivojlanishining har bir bosqichi bolaning tafakkur jarayonida muhim o‘rin tutadi, chunki nutq inson fikrlarini shakllantirish, ularni tartibga solish va boshqalarga yetkazishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu sababli, ta’lim jarayonida bolalar nutqini rivojlantirishning har bir bosqichini inobatga olish va ularning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha maxsus metodlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

